



**MAKTABGACHA YOSHDAGI TAYYORLOV GURUHI
TARBIYALANUVCHILARINI KASBLAR BILAN TANISHTIRISHDA XORIJIY
TAJRIBALARDAN FOYDALANISH**

Saribayeva Barno Jamalatdinovna

*Qoraqolpog'iston Respublikasi Qo'ng'iroq tumani
24-sonli DMTTda direktor orinbosari*

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha katta yoshdagi (5-7 yosh) bolalarni kasblar bilan tanishtirish jarayonining metodik ta'minoti masalalari ko'rib chiqilgan. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni kasblar bilan tanishtirish bo'yicha metodik ta'minotning yetarli emasligiga e'tibor qaratilgan. Tadqiqot doirasida bolalarda kasblar haqidagi tasavvurlarning shakllanish bosqichlari (boshlang'ich, asosiy va tayyorgarlik bosqichlari) belgilab berilgan. Maqolada L.S. Vygotskiy, A.N. Leont'ev, D.B. Elkonin kabi taniqli psixologlarning nazariy qarashlariga tayanib, o'yin faoliyatining maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirish jarayonidagi roli asoslantirilgan. Metodik ta'minotni takomillashtirish yo'llari tavsiya etilgan, jumladan, evristik suhbatlar, ekskursiyalar, o'yin va tasviriy faoliyat, kasbiy bayramlar bilan tanishtirish kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, kasbga yo'naltirish, metodik ta'minot, katta maktabgacha yoshi, o'yin faoliyati, kasbiy tarbiya, didaktik resurslar.*

Annotation: *The article considers the issues of methodological support for the process of introducing older preschool children (5-7 years old) to professions. Attention is drawn to the inadequacy of methodological support for introducing children to professions in modern preschool educational organizations. The research identifies the stages of formation of ideas about professions in children (initial, main and preparatory stages). The article substantiates the role of game activities in the process of introducing preschool children to professions, based on the theoretical views of such well-known psychologists as L.S. Vygotsky, A.N. Leont'ev, D.B. Elkonin. Ways to improve methodological support are recommended, including the analysis of modern pedagogical approaches such as heuristic conversations, excursions, game and visual activities, and introduction to professional holidays.*

Keywords: *preschool education, vocational guidance, methodological support, senior preschool age, play activities, vocational training, didactic resources.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы методического обеспечения процесса ознакомления детей старшего дошкольного возраста (5-7 лет) с профессиями. Обращается внимание на недостаточность методического обеспечения по ознакомлению детей с профессиями в современных дошкольных образовательных организациях. В рамках исследования определены этапы формирования представлений о профессиях у детей (начальный, основной и подготовительный этапы). В статье, опираясь на теоретические взгляды известных психологов Л.С. Выготского, А.Н. Леонтьева, Д.Б. Эльконина, обоснована роль игровой деятельности в процессе ознакомления дошкольников с профессиями. Рекомендованы*



пути совершенствования методического обеспечения, в том числе проанализированы современные педагогические подходы, такие как эвристические беседы, экскурсии, игровая и изобразительная деятельность, ознакомление с профессиональными праздниками.

Ключевые слова: *дошкольное образование, профориентация, методическое обеспечение, старший дошкольный возраст, игровая деятельность, профессиональное воспитание, дидактические ресурсы.*

Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi shartlarida mehnat bozoriga kerakli kadrlarni tayyorlash muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta‘lim tizimini isloh qilish, jumladan maktabgacha ta‘lim sohasidagi islohotlar bolalarda erta yoshdan mehnat faoliyati, kasblar va kasbiy yo‘nalishlar haqida tasavvurlarni shakllantirish zarur. Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi[1]da bolalarning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlanishini ta‘minlash, ularni hayotga tayyorlash vazifasi belgilangan. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarni (5-7 yosh) kasblar bilan tanishtirish bu vazifaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ammo amaliyot shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni kasblar bilan tanishtirish bo‘yicha zamonaviy talablarga javob beradigan metodik ta‘minot yetarli emas. Mavjud dastur va qo‘llanmalar ko‘pincha yangi kasblar, zamonaviy texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarni aks ettirmaydi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirish jarayonini samarali amalga oshirish uchun ilmiy asoslangan metodik ta‘minotni ishlab chiqish va uning samaradorligini juda ko‘plab xorijiy tajribalarda o‘z aksini topgan. Yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan xorijiy tajribalarni O‘zbekiston MTTlari mashg‘ulot jarayonlariga inetgratsiya qilish esa ta‘lim-tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi, uning milliylikka asoslangan bo‘lishi ham asosiy vazifalardan biridir. Lekin uni avvalo quyidagi tartibda amalga oshirishni nazarda tutish mumkin:

–Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirish muammosining pedagogik-psixologik asoslarini o‘rganish va tahlil qilish;

–Katta maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirish jarayonining xususiyatlarini aniqlash;

–O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda kasblar bilan tanishtirish bo‘yicha metodik ta‘minotning holati va rivojlanish tendentsiyalarini tadqiq etish;

–Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirish uchun kompleks metodik ta‘minotni ishlab chiqish;

–Ishlab chiqilgan metodik ta‘minotning samaradorligini tajriba-sinov yo‘li bilan tekshirish;

–Amaliyot uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirish jarayonida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirishning metodik ta‘minotidagi bo‘shliqlarni tahlil qilib o‘rganish ham nihoyatda zarur, bu uning amaldagi realligini ochib beradi. L.S. Vygotskiy, A.N. Leont‘ev, D.B. El‘konin[2] kabi psixologlarning



tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yetakchi faoliyat o'yin hisoblanadi. Ayni shu o'yin faoliyati orqali bolalar kattalar mehnat faoliyati, kasblar va ijtimoiy munosabatlar haqida tasavvurlarni o'zlashtirishadi.

Biz avvalo maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida kasblar haqida tasavvurlarning shakllanish bosqichlarini aniqlashtirib oldik. Avvalo kasblar haqidagi tasavvurlar boshlang'ich bosqichda (3-4 yosh) shakllantiriladi. Bunda eng yaqin kasblar bilan tanishtirish (ona, ota kasbi, ular nima ish qilishi), kasblarning tashqi belgilari bilan tanishish (maxsus kiyimlari, asboblari) va ushbu kasb egalarining oddiy harakatlariga taqlid qilish kabi vaziyatlar yuzaga keladi.

Asosiy bosqichda (5-6 yosh) esa kasblar haqidagi tasavvurlar kengayadi va kasb vakillarining mehnat jarayoni haqida tasavvurlar shakllana boshlaydi. Qaysi kasb nima uchun kerakligi haqida tushunchalar shakllanadi. Natijada kasblar haqidagi o'yin faoliyati rivojlanib boradi va kasbiy rollarni bajarishga qiziqish uyg'onadi.

Tayyorgarlik bosqichda (6-7 yosh) kasblar haqida umumlashtirilgan tasavvurlar (masalan, shifokor shifoxonada ishlaydi, u bemorlarni davolaydi, o'qituvchi maktabda ishlaydi, u o'quvchilarni o'qitadi) shakllanadi va o'yinlar mazmuni ham boyiydi (masalan, o'qituvchi ishlash jarayonida o'quvchilar bilan muloqotga kirishadi, ularni baholaydi).


Metodik ta'minot yaratishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyotida bevosita qo'llanilishi mumkin bo'lgan va maktabgacha ta'limning davlat o'quv dasturi va standartiga mos bo'lgan didaktik resurslar bankini yaratishga e'tibor qaratdik. Kasb tanlash – mas'uliyatli ish bo'lib, u qanchalik to'g'ri amalga oshirilishiga ko'ra inson hayotida ko'p narsa bog'liq. Shuning uchun maktabgacha ta'limning kichik yoshidan boshlab bolalarning e'tiborini kattalarning nima qilishiga qaratish muhimdir. Barcha kasb egalarining o'z bayramlari bor, kasblar olami bilan tanishtirish maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kasbiy bayramlar bilan tanishtirish va ularga tayyorgarlik ko'rish asosida tashkil etilsa, yanada samarali bo'ladi.[3]

Bolalarda kasb nima ekanligi haqida tasavvurni shakllantirish uchun avvalo kasbga qiziqishni qo'llab-quvvatlash, mustaqil fikrlash va tanlashga yordam berish uchun tarbiyachi-pedagogga tarbiyalanuvchilarni kattalarning mehnati bilan tanishtirish metodikasini savodli qo'llash muhim bo'lib, kuzatishlar, ekskursiyalar, sayohatlar, suhbatlar, turli kasb vakillari bilan uchrashuvlar, o'yin va tasviriy faoliyat, rasmlar va illyustratsiyalarni ko'rib chiqish va boshqalarni qo'llash lozim.

Kattalarning mehnati haqidagi bilimlar tizimiga turli kasb vakillarining mehnati o'rtasidagi o'zaro aloqa haqida tushunchalarni kiritish zarur. Bolalar yer yuzidagi barcha odamlarga yashash uchun juda ko'p narsalar kerak ekanligini bilishlari kerak: kiyim, oziq-ovqat, uy, transport va boshqalar. Bularning barchasini kattalar mehnati bilan yetishi, shuning uchun turli kasb egalari bo'lishi kerakligini tushunishlari kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar bilan turli kasblar qanday paydo bo'lishi haqida suhbat o'tkazish va mazkur mavzuda mashg'ulotlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bunday mashg'ulotlar uchun illyustratsiya va multimedia vositalaridan foydalanish metodikasini qo'llash lozim.

Evristik suhbatlar ko‘rinishidagi frontal mashg‘ulotlar bolalarda ish nima ekanligi, mehnat qilish nimani anglatishi haqida to‘g‘ri tushuncha shakllantirishga yo‘nalganligi bilan ahamiyatli. Agar tarbiyachi bunday suhbatni o‘z monologiga aylantirmay, balki bolalar bilan birgalikda mulohaza yuritsa, birgalikda yechim va izoh topsa, mashg‘ulotlar qiziqarliroq o‘tadi. Bolalarning o‘zlari u yoki bu kasblar nega yuzaga kelishi haqidagi fikrlarni tahlil qilishga kirishadi. Shuningdek, xulosalarni bolalarning o‘zlari chiqargani ma’qul.



Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan kasblar haqida evristik suhbat qurish sxemasi

Kasblar haqidagi suhbat-mashg‘ulotlar bolalarni kasblarning xilma-xilligi bilan tanishtirishga, jamiyatimizning turli sohalarida ishlaydigan kattalarning mehnati ma’nosi nimada ekanligini anglashga qaratilgan bo‘lishi kerak. O‘yinlar bolalarda kattalar olamiga qiziqishni rivojlantirishga, kattalarning mehnat faoliyati to‘g‘risida aniq tasavvurlarni tizimli ravishda (kasb nomi, ish joyi, mehnat material, mehnat qurollari, mehnat harakatlari, mehnat natijasi va foydasi) shakllantirishga, mehnat harakatlari hamda kattalar muomalasi uslublariga taqlid qilish istagini uyg‘otishga yordam beradi.[6]

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirish zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun ilmiy asoslangan, kompleks metodik ta’minot zarur.

O‘yin faoliyati asosida, evristik suhbatlar, ekskursiyalar, kasbiy bayramlar va zamonaviy multimedia vositalari yordamida tashkil etilgan kasblar bilan tanishtirish jarayoni bolalarda nafaqat kasblar haqida tasavvurlarni shakllantiradi, balki mehnatga hurmatni, mustaqil fikrlash va tanlov qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. [7]Kelajakda metodik ta’minotni yanada takomillashtirish, yangi kasblar, zamonaviy texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarni qamrab oluvchi materiallar yaratish zarurati mavjud. Bu esa maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning kasbiy yo‘naltirilishi sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
2. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – М.: Эксмо, 2004. – 512 с.
3. Леонтьев А.Н. Психологические основы дошкольной игры // Избранные психологические произведения: В 2-х т. Т.1. – М.: Педагогика, 1983. – С. 303-323.
4. Эльконин Д.Б. Психология игры. – М.: Владос, 1999. – 360 с.
5. Кондрашов В.П. Введение дошкольников в мир профессий: Учебно-методическое пособие. – Балашов: Николаев, 2004. – 52 с.
6. Куцакова Л.В. Трудовое воспитание в детском саду. Система работы с детьми 3-7 лет. – М.: Мозаика-Синтез, 2012. – 128 с.
7. Потапова Т.В. Беседы с дошкольниками о профессиях. – М.: Сфера, 2005. – 64 с.
8. Шорыгина Т.А. Профессии. Какие они? Книга для воспитателей, гувернеров и родителей. – М.: Гном и Д, 2004. – 96 с.
9. Захаров Н.Н. Профессиональная ориентация дошкольников. – М.: Просвещение, 1988. – 272 с.
10. Крулехт М.В. Дошкольник и рукотворный мир. СПб.: Детство-Пресс, 2003. – 160 с.